










**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021- yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)**

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 468,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 87,3 mln. AQSh dollariga yoki 22,9 % ga ko'paydi.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-sentabr, ming AQSh dollari)**

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	380 863,6	468 198,1	122,9 %	x
Eksport 	250 961,4	297 690,3	118,6 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	248 407,9	295 693,5	119,0	99,3
 <i>xizmatlar</i>	2 553,4	1 996,8	78,2	0,7
 <i>oltin</i>	-	-	-	-
Import 	129 902,3	170 502,8	131,3 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	123 585,8	161 513,8	130,7	94,7
 <i>xizmatlar</i>	6 316,4	8 994,0	142,4	5,3
 Saldo	121 059,1	127 187,5	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 297,7 mln. AQSh dollariga (18,6 % ga ko'paydi) va import hajmi 170,4 mln. AQSh dollariga (31,3 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 127,2 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)**



**Xitoy Xalq
Respublikasi**

TSA – 114,1
Eksport – 84,3
Import – 29,8



Turkiya

TSA – 79,1
Eksport – 68,0
Import – 11,1



**Rossiya
Federatsiyasi**

TSA – 83,7
Eksport – 54,5
Import – 29,2



Qozog'iston

TSA – 44,8
Eksport – 28,8
Import – 16,0



Latviya

TSA – 23,9
Eksport – 21,4
Import – 2,5



**Koreya
Respublikasi**

TSA – 22,3
Eksport – 3,4
Import – 18,9



**Qirg'iz
Respublikasi**

TSA – 6,8
Eksport – 3,3
Import – 3,5



Afg'oniston

TSA – 3,2
Eksport – 3,2
Import – 0,0



Ukraina

TSA – 11,8
Eksport – 11,0
Import – 0,8



Turkmaniston

TSA – 3,0
Eksport – 0,8
Import – 2,2

Qoraqalpog'iston Respublikasi, jahonning 49 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (38,7 %), Turkiyada (26,6 %), Rossiya Federatsiyasida (28,1 %), Qozog'istonda (15,0 %), Latviyada (8,0 %), Koreya Respublikasida (7,5 %) va Qirg'iz Respublikasida (2,3 %) qayd etilgan.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da Qirg'iziston, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, va Latviya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR
(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi (114,1 mln. AQSh dollari), Turkiya (79,1 mln. AQSh dollari), Rossiya (83,7 mln. AQSh dollari) va Qozog'iston (44,5 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	140,0	106,8	114,1
Eksport	82,7	78,3	84,3
Import	57,3	28,5	29,8
Saldo	25,4	49,8	54,5
Turkiya	64,0	47,8	79,1
Eksport	46,5	45,7	68,0
Import	17,5	2,1	11,1
Saldo	29,0	43,6	56,9
Rossiya Federatsiyasi	138,6	80,3	83,7
Eksport	110,4	51,3	54,5
Import	28,2	29	29,2
Saldo	82,2	22,3	25,3
Qozog'iston	58,8	38,6	44,8
Eksport	46,8	26,6	28,8
Import	12,0	12,0	16,0
Saldo	34,8	14,6	12,8
Latviya	18,1	19,7	23,9
Eksport	14,3	16,0	21,4
Import	3,8	3,7	2,5
Saldo	10,5	12,3	18,9
Ukraina	4,9	6,1	11,8
Eksport	2,1	5,4	11,0
Import	2,8	0,7	0,8
Saldo	-0,7	4,7	10,2

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Koreya Respublikasi	50,0	27,4	22,3
Eksport	16,4	5,1	3,4
Import	33,6	22,3	18,9
Saldo	-17,2	-17,2	-15,5
Qirg'iz Respublikasi	3,4	3,4	6,8
Eksport	2,4	1,9	3,3
Import	1,0	1,5	3,5
Saldo	1,4	0,4	-0,2
Afg'oniston	0,6	2,7	3,2
Eksport	0,6	2,7	3,2
Import	-	-	-
Saldo	0,6	2,7	3,2
Tojikiston	2,4	4,7	2,3
Eksport	2,4	4,7	2,3
Import	-	-	-
Saldo	2,4	4,7	2,3
Litva	3,0	0,7	3,9
Eksport	0,0	0,0	2,2
Import	3,0	0,7	1,7
Saldo	-3,0	-0,7	0,5
Iron	4,9	1,9	4,9
Eksport	0,2	0,0	1,9
Import	4,7	1,9	3,0
Saldo	-4,5	-1,9	-1,1
Iroq	1,4	2,0	1,5
Eksport	1,4	2,0	1,5
Import	-	-	-
Saldo	1,4	2,0	1,5


Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Fransiya	0,6	0,3	2,3
Eksport	0,1	0,1	1,4
Import	0,5	0,2	0,9
Saldo	-0,4	-0,1	0,5
Pokiston	0,0	1,0	1,6
Eksport	0,0	1,0	1,4
Import	0,0	0,0	0,2
Saldo	0,0	1,0	1,2
Gruziya	3,2	2,0	2,8
Eksport	0,4	0,8	1,2
Import	2,8	1,2	1,6
Saldo	-2,4	-0,4	-0,4
Turkmaniston	3,5	2,3	3,0
Eksport	0,4	0,6	0,8
Import	3,1	1,7	2,2
Saldo	-2,7	-1,1	-1,4
Germaniya	3,2	1,5	7,0
Eksport	0,5	0,4	0,6
Import	2,7	1,1	6,4
Saldo	-2,2	-0,7	-5,8
ASQH	1,0	1,1	1,1
Eksport	0,0	0,6	0,5
Import	1,0	0,5	0,6
Saldo	-1,0	0,1	-0,1
Estoniya	1,6	0,9	0,6
Eksport	1,2	0,9	0,5
Import	0,4	0,0	0,1
Saldo	0,8	0,9	0,4

Qoraqalpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'ngi yillarda biroz o'zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021 - yilning yanvar-sentabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 32,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 3,1 % ga kamaygan.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY
DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 32,8 % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi 67,2 % ni tashkil etdi.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-sentabr)

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 174 tani tashkil etib, ular tomonidan 297,5 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 18,6 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,8 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (67,3 %), sanoat tovarlari (12,4 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (14,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (4,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-sentabr)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	297 690,3	118,6	100,0	101172,2	111,5	100,0	196 518,1	122,7	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	13 612,2	99,6	4,6	5 555,2	78,6	5,5	8 057,0	122,2	4,1
Ichimliklar va tamaki	24,7	151,5	0,0	24,7	151,5	0,0	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	43 231,5	137,7	14,5	4 258,9	196,9	4,2	38 972,6	133,3	19,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 201,0	105,6	0,4	738,1	295,6	0,7	462,9	52,2	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	200 326,8	115,5	67,3	82 274,3	110,8	81,3	118 052,5	118,9	60,1
Sanoat tovarlari	36 846,7	143,7	12,4	6 284,7	114,9	6,2	30 562,0	151,5	15,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	15,4	608,7	0,0	15,4	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	435,2	25,5	0,1	281,7	351,2	0,3	153,5	9,4	0,1
Xizmatlar	1 996,8	78,2	0,7	1 739,2	181,0	1,7	257,6	16,2	0,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinlar sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda nooziq-ovqat xomashyoga (yoqilg'idan tashqari) to'g'ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari), sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlari o'sish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-sentabr, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,0	5,5	4,6
Ichimliklar va tamaki	-	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,5	12,3	14,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,8	0,3	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,5	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	78,7	70,2	67,3
Sanoat tovarlari	7,9	9,2	12,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,4	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,8	0,1
Xizmatlar	0,5	1,0	0,7



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-sentabr)**


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	10 461,5	86,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 939,8	189,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	161,9	539,7 b
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	45,2	213,2
Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,2	-
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	2,5	-
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	24,7	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	29 216,8	134,6
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	13 497,7	202,3
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	54,8	86,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	462,7	15,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 201,0	105,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	68,6	531,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	200 069,6	126,8
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojaxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	156,1	229,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,4	-

Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	6,1	-
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	33 328,9	148,7
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	23,5	10,8
Cho'yan va po'lat	-	-
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	3 494,4	111,9
Metaldan tayyorlangan buyumlar	0,02	28,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunolari	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	3,3	660,0
Maxsus bo'limlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	12,1	
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	76,5	236,1
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	343,6	20,5
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	14,0	-
Santexnika, isitish va yoritish uskunolari uchun binolar, armatura va armatura bloklari, boshqa toifalarga kiritilmagan	1,0	-
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	487,6	111,3
Transport xizmatlari	1 165,4	152,6
Safarlar (turizm)	343,8	134,4
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	-	-
Qurilish xizmatlari	-	-

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvar-sentabridagi 49,5 % dan 2021- yilning yanvar-sentabrida 34,0 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 66,0 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 38,3 % i), Turkiya (26,6 %), Rossiya Federatsiyasi (28,1 %), Qozog'iston (15,0 %), Latviya (8,0 %), Ukraina (4,0 %) va Qirg'iz Respublikasi (2,3 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 91,7 foizni tashkil etmoqda.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-sentabr, % da)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Turkiyaning ikki pog'onaga tushishi hisobiga, Xitoy Xalq Respublikasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 34 davlatdan 36 davlatga ko'paydi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH
SUR'ATLARI
(yanvar-sentabr)**

Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	78281,7	84334,4	94,7	107,7	1	1
Turkiya	45729,0	67953,5	98,3	148,6	3	2
Rossiya	51289,0	54518,9	46,5	106,3	2	3
Qozog'iston	26559,2	28832,7	56,8	108,6	4	4
Latviya	16042,4	21426,0	112,5	133,6	5	5
Ukraina	5430,1	11000,2	256,9	202,6	6	6
Koreya Respublikasi	5149,3	3388,6	31,5	65,8	12	7
Qirg'iz Respublikasi	1861,7	3320,6	78,7	178,4	10	8
Afg'oniston	2681,8	3209,2	435,3	119,7	7	9
Tojikiston	4701,8	2276,9	194,4	48,4	34	10
Litva	0,1	2163,7	8,8	2226953,5	8	11
Iron	-	1944,3	-	-		12
Iroq	1984,6	1472,9	146,1	74,2	18	13
Franciya	140,4	1449,7	198,8	1032,3	19	14
Pokiston	960,4	1404,6	#3HA4!	146,3	11	15
Gruziya	816,3	1233,2	181,9	151,1	17	16
Turkmaniston	578,9	800,2	135,5	138,2	20	18
Germaniya	427,4	639,5	91,1	149,6	16	19
Estoniya						

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.



**RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-sentabr, ming AQSh dollari)**


XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Latviya	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	78281,7	84334,4	45729,0	67953,5	51289,0	54518,9	26559,2	28832,7
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 051,7	753,2	537,7	1 032,6	765,4	278,7	6 207,7	5 078,8
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	16,3	24,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	19 567,9	25785,7	903,8	8 302,5	2 046,6	2 471,9	25,7	1 772,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	45 573,5	37 156,9	38 574,3	52 784,1	42 907,1	45 706,3	20 081,1	21 445,4
Sanoat tovarlari	10 493,4	20 483,6	5 711,9	5 833,1	5 011,5	5 013,9	3,9	17,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	-	-	-	-	-	3,3	-	12,1
Turli xil tayyor buyumlar	1593,4	153,5	-	-	-	4,9	32,4	72,9
Xizmatlar	1,9	1,8	1,3	1,2	558,3	1 039,9	192,0	409,3

Xizmatlar eksporti hajmi 1 996,8 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,7 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 21,8 % ga

kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (17,2 %), transport (58,4 %) hamda moliyaviy xizmatlar (24,4 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



- Transport xizmatlari
- Safarlar (turizm)
- Moliyaviy xizmatlar

- Qurilish xizmatlari
- Boshqa xizmatlar



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI


Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 5 275,1 ming AQSh dollari qiymatli 26 559,8 tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 1 731,4 ming AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 75,3 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2 828,0 ming AQSh dollariga teng 16 672,0 tonna sabzavot, shuningdek, 590,1 ming AQSh dollari qiymatidagi 674,4 tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi

53,6 % ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2021- yil yanvar-sentabr, ming AQSh dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (92,4 %), Rossiya Federatsiyasi (5,3 %) va Italiya (2,3 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajriba bilan ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar-sentabr)**

Davlat nomi	2020- yil			2021- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da
Qozog'iston	29 166,5	6 023,0	86,0	26 043,2	4 874,8	92,4

Davlat nomi	2020- yil			2021- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da
Rossiya Federatsiyasi	1 827,7	765,4	10,9	481,9	278,7	5,3
Italiya	-	-	-	34,7	121,7	2,3
Xitoy Xalq Respublikasi	51,0	53,0	0,8	-	-	-

*- qiymat ifodasida



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI








To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 30 014,4 ming AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 10,4 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 61,3 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (96,9 %) hamda ipak va ipak mahsulotlari (1,6 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 12 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 8 ta davlatiga eksport qilindi.

Respublikaning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar-sentabr, ming AQSh dollari)

Tovar nomi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 Paxtadan yigirilgan ip	17 393,0	22 335,5	32771,8
 Ipak va ipak mahsulotlari	1 181,9	437,7	613,6
 Naqshli mato	-	-	50,0
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	-	27,7	280,2
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	-	-	156,9
 Paxta mahsulotlari	9,1	41,0	41,6
 Paxtadan gazlamalar	-	-	-

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (21 060,4 ming AQSh dollari – 62,1 %), Rossiya Federatsiyasi (4 973,4 ming AQSh dollari – 14,7 %) va Turkiya (5 833,1 ming AQSh dollari – 17,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



ALOHIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI
(yanvar-sentabr, ming AQSh dollari)





**DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI
EKSPORTI DINAMIKASI**
(*yanvar-sentabr, ming AQSh dollari*)

Davlatlar	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	11605,9	10843,5	21060,4
Rossiya Federatsiyasi	4163,6	4991,4	4973,4
Turkiya	1389,8	5711,9	5833,1
Pokiston	-	68,7	290,0
Qirg'iz Respublikasi	647,7		90,3
BAA	-	-	84,5
Portugaliya	954,7	1393,3	954,7
Hindiston	389,0	87,6	36,6
Polsha	98,5	184,2	-


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI
(*2021- yil yanvar-sentabr*)

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 170,5 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 131,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (41,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,6 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (13,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.



**XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)**



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40,6 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 131,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 5,9 mln. AQSh dollariga yetdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-sentabr)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	ming AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	170 507,8	131,3	100,0	52 320,4	113,9	100,0	118 187,4	140,8	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19 800,6	106,0	11,6	15 027,8	105,5	28,7	4 772,8	107,4	4,0
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11 646,7	100,6	6,8	11 595,5	102,7	22,2	51,2	17,9	0,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	13 514,4	184,7	7,9	6 489,6	216,2	12,4	7 024,8	162,7	5,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4 806,6	134,4	2,8	4 806,6	134,4	9,2	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	23 289,7	107,2	13,7	2 092,1	72,6	4,0	21 197,6	112,5	17,9
Sanoat tovarlari	11 267,6	145,6	6,6	6 963,0	138,7	13,3	4 304,6	158,5	3,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	71 334,3	163,3	41,8	1 778,2	35,9	3,4	69 556,1	179,6	58,9
Turli xil tayyor buyumlar	5 853,8	63,1	3,4	238,6	36,3	0,5	5 615,2	65,2	4,8
Xizmatlar	8 994,1	142,4	5,3	3 329,0	1 093,1	6,4	5 665,1	94,2	4,8

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik

hayvonlar importining ulushi 6,0 % dan 11,6 % gacha o'sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 56,4 % dan 41,8 % ga, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 10,9 % dan 3,4 % ga tashkil etdi.



IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,0	14,4	11,6
Ichimliklar va tamaki			-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,5	8,9	6,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,5	5,6	7,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1	2,8	2,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	9,9	16,7	13,7
Sanoat tovarlari	4,9	6,0	6,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	51,9	33,6	41,8
Turli xil tayyor buyumlar	11,3	7,1	3,4
Xizmatlar	3,9	4,9	5,3

Xizmatlar importining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan jami importdagi ulushi 4,9 % dan 5,3 % ga ko'paydi.



**ALOHIDA IMPORT TOVARLAR
(2021- yil yanvar-sentabr, ming AQSH. doll.)**



**XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR TARKIBI
(2021- yil yanvar-sentabr)**

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	11 022,4	103,1
Tirik hayvonlar	5 841,2	137,7
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	80,7	63,7
Sabzavotlar va mevalar	66,6	67,4
Go'sht va go'sht mahsulotlari	399,1	257,7
Shakar mahsulotlari va asal	24,1	1,8
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	610,4	448,8
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	212,8	201,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1 439,0	154,5
Hayvonlar uchun ozuqa	104,3	12,6
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		

Probka va yog'och-taxtalar	9 704,6	85,9
Metall rudalari va metall parchalari	1 836,7	854,3
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari		
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	8,0	13.b
To'qimachilik tolalari	1 710,0	795,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	10 552,8	176,3
Ko'mir, koks va briketlar	2 947,9	243,9
Tabiiy yoki sun'iy gaz	13,7	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	4 797,5	134,1
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	9,1	-
Hayvonlar moylari va yog'lari	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	721,6	105,6
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	87,7	96,7
Kimyoviy materiallar va mahsulotlar	15 920,1	113,3
Organik kimyo moddalari	5 043,9	107,1
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	1 162,4	149,0
Noorganik kimyo moddalari	130,0	20,9
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari	11,3	10,8
O'g'itlar	212,7	55,4
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1 030,2	148,2
Rezina buyumlari	388,6	198,7
Metallardan tayyorlangan buyumlar	852,9	64,2
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	116,0	243,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	893,8	106,5
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	7 951,0	173,6
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	35,1	68,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	8 503,3	65,9 b.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	30 491,4	167,3


Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	14 371,8	152,8
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning elektr qismlari	2 027,2	57,2
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalar	6 980,9	98,1
Metallarni qayta ishlash mashinalari	282,3	78,0
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	55,9	22,2
Avtomobillar	4 931,6	110,9
Boshqa transport vositalari	3689,8	17,1 b
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	255,9	34,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2 287,6	158,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	3 238,6	46,2
Poyabzal	1,6	-
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	32,5	23,2 b.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	30,0	81,3
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	7,6	21,8
Xizmatlar		
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	4 715,6	89,8
Transport xizmatlari	130,3	141,2
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari	3 481,1	863,1
Moliyaviy xizmatlar	667,0	117,4

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari (46,2 % ga pasaygan), har xil tayyor buyumlar (34,2 % ga pasaygan) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari importi kamayishiga esa, probka va yog'och-taxtalar (85,9 % ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA
XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 17,5 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (17,1 %) ortda qoldirgan holda birinchi o'rinni egalladi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tomonidan 41 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-sentabr)**

Davlat nomi	ming AQSH dollari		o'sish sur'ati, % da		o'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	28496,1	29818,4	49,7	104,6	1	1
Rossiya Federatsiyasi	28985,2	29187,0	102,9	100,7	2	2
Koreya Respublikasi	22330,9	18912,1	66,5	84,7	3	3
Qozog'iston	11963,4	16004,7	99,8	133,8	4	4
Turkiya	2053,4	11135,6	11,7	542,3	31	5
Shvetsiya	205,8	9159,9	170,8	4451,8	8	6
Vyetnam	7218,2	7088,6	62,6	98,2	5	7
Chexiya Respublikasi	2277,5	6557,4	220,1	287,9	7	8
Germaniya	1142,1	6384,9	41,8	559,0	19	9
Niderlandiya	488,8	5426,3	39,5	1110,1	28	10
BAA	407,6	4958,9	21,9	1216,7	27	11
Qirg'iz Respublikasi	1459,4	3525,0	152,9	241,5	12	12
Eron	1860,0	2981,5	39,3	160,3	9	13
Latviya	3730,8	2480,3	98,8	66,5	6	14
Gonkong	1739,8	2211,7	55,9	127,1	30	15
Turkmaniston	583,4	1842,0	31,4	315,7	13	16
Litva	657,4	1671,1	22,0	254,2	23	17
Ruminiya	2077,2	1353,3	111,8	65,2	10	18
Fransiya	245,7	924,6	49,1	376,3	11	19
Polsha	1438,4	836,6	66,3	58,2	22	20

Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Vyetnam kabi mamlakatlar Qoraqalpog'iston Respublikasiga to var va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Chvetsiya, Koreya Respublikasi, Vyetnam va Chexiya Respublikasi) jami importning 69,2 % ulushini tashkil qildi, bu 118,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-sentabr, % da)**




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi,

Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)**



- Transport xizmatlari
- Safarlar (turizm)
- Moliyaviy xizmatlar
- Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari
- Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 8 994,0 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 5,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 0,4 % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (52,4 %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlar va (38,7 %) dan iborat bo'ldi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar (7,4 %) va transport xizmatlari (1,5 %) tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel: (61) 224-92-06**